



## МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ BOLALARNING RIVOJLANISHIDA SYUJETLI-ROLLI O'YINLARNING AHAMIYATI

*Berdiyeva M.M.*

*Dots.*

*Termiz davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi mudiri*

*Muratova D.E.*

*Termiz davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Tayanch so'zlar:** syujetli-rolli o'yinlar, bolalar rivojlanishi, maktabgacha yosh.

**Ключевые слова:** сюжетно-ролевые игры, развитие ребенка, дошкольный возраст.

**Key words:** story-role games, child development, early childhood.

KIrish. Syujetli-rolli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning eng muhim va samarali usullaridan biridir. O'yin davomida bolalar turli rollar va vaziyatlarni taqlid qiladilar, bu ularga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish, muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish imkonini beradi.

Syujetli-rolli o'yinlar tomonidan rag'batlantiriladigan rivojlanishning asosiy jihatlaridan biri bu muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Boshqa bolalar bilan muloqot qilish jarayonida bola o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifodalashni, boshqalarni tinglashni va tushunishni o'rganadi, murosaga kelishni va nizolarni hal qilishni anglaydi. Bularning barchasi atrofimizdagidagi odamlar bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish uchun juda muhimdir.

**Asosiy qism:** Syujetli-rolli o'yinlar bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin davomida ular turli vaziyatlarni qurishlari, o'zlarining dunyolarini yaratishlari, turli rollar va hikoyalarni o'ylab topishlari mumkin. Bu ularning dunyoqarashini kengaytirishga, dunyoga turli nuqtai nazardan qarashni o'rganishga va hatto o'z tasavvurlari yordamida muammolarni hal qilishga yordam beradi.



Turli rollarni o'ynab, bolalar atrof-dagi dunyo bilan yashashni va muloqot qilishni o'rganadilar. Ular turli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtira oladilar, har xil his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar va odamlarning xatti-harakatlari sabablarini tushunib yetadilar. Bu ularga ijtimoiy kompetentsiyani, empatiyani rivojlantirishga va o'zlarini hamda boshqalarni yaxshiroq tushunishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me'yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu ijodiy o'yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, hayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning hayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi. D.B.Elkonin ijodiy o'yinni birgalikda o'ynaladigan o'yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o'z nuqtai nazarini boshqalar nuqtai nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o'tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta'kidlab o'tgan. O'yinning san'atga yaqinligi ijodiy o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'lik bo'lgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z roliga oid hatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

**Muhokama.** Syujetli - rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi uchun ko'rgazmalar tayyorlash.

Guruhlarda xonalarni syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish markaziga mos holda jihozlash yo'riqnomasi:

1. Shirma
2. Marionetka-qo'g'irchoqlar (ipda o'ynatadigan)
3. Qo'lqopli, barmoqli, tayyoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari
4. Ertak qaxramonlari liboslari
5. Niqoblari
6. Uycha maketi
7. Mazmunli o'yinchoqlar
8. Rejissyorlik o'yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari)
9. Sahna uchun jixozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va xokazo)

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni -



bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko'rinishlari - bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

**Natija.** Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish,
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 - bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illyusrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari

3 - bosqich. o'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar.

Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4 - bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;



- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiali,
- so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili xisoblanadi.

5 - bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi - maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'lag'onli yordam berish;
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

Xulosa. Syujet - o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblandsada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni – bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida syujetli-rolli o'yinlar boshlang'ich vazifani bajaradi. Bu bolalarning jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning



ishonchli, ijodiy va xushmuomala shaxs bo'lishiga ko'maklashadi. Shu sababli, ota-onalar va o'qituvchilar bolalarni rol o'ynash faoliyatiga jalb qilishlari va qo'llab-quvvatlashlari kerak, chunki bu ularning rivojlanishi, farovonligi va shaxsiyatini shakllantirish uchun uzoq muddatli ijodiy oqibatlariga olib keladi.

#### Adabiyotlar:

1. Meyliyeva B. M. The development of cognitive interests in older Preschoolers in the process of getting acquainted With nature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2022. –Т. 12. –№. 4. –С. 121-128.
2. Meyliyeva B. M. The quality of preschool education at the present stage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2021. –Т. 11. –№. 10. –С. 2267-2271.
3. Berdiyeva M., Bo'Ranova S. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqalibolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari //Science and Education. –2021. –Т. 2. –№. 4. –С. 425-429.
4. Бердиева М. М. Проектирование предметно-пространственной развивающей среды дошкольных организаций //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. –2018. –С. 156-159.
5. M.Berdiyeva Intellectual development in preschool education- Applied Science, 2020- elibeary.ru
6. M.Berdiyeva S.Bo'ronova “Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish metodi orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari” Science and Education 2021 y:
7. BM Meyliyeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari” Научно-практическая конференция, 2021
8. Choriyeva S. Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 51-54.
9. Choriyeva S. Education and Education of Pre-School Children on the Basis of Steam Educational Technology //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 250-253.
10. Choriyeva .S. Ways to Develop Mental Abilities in Preschool Children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 15. – С. 174- 177.
11. Choriyeva S. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.

#### РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida syujetli-rolli o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Bu har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, muloqot qilish qobiliyatini, ijodiy fikrlashni, hissiy va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

#### РЕЗЮМЕ

Сюжетно-ролевые игры имеют важное значение в развитии детей дошкольного возраста. Он способствует формированию всесторонне развитой личности, развитию коммуникативных навыков, творческого мышления, эмоциональной и социальной компетентности.

#### SUMMARY

Plot-role games are important in the development of preschool children. It helps to form a well-rounded personality, develop communication skills, creative thinking, emotional and social competence.